

## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



## SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



## PAVLAYIVA ANNA KARENINA: TUTASH TAQDIRLAR

*Maktuba Murtazaxodjayeva**O'qituvchi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Anna, Pavlayi, psixologik realizm, sadoqat va muhabbat, noan'anaviy sevgi, ayollar taqdiri.

**Annotatsiya:** Har bir xalqning o'z nodir asarlari bo'ladi. Vaqt o'tsa-da ular o'z qadr-qiyamatini yo'qotmaydi. Bunday asarlar zamon va makon tanlamaydi, tildan-tilga tarjima bo'lib muxlislari e'tirofiga sazovor bo'laveradi. Rus adabiyoti vakili Lev Tolstoy o'zining yetuk asarlari bilan adabiyot muxlislarning ko'nglidan joy olgan. Uning asarlaridan ilhomlanib, ijodkorlar yangi asarlar yozishga muvaffaq bo'lmoqdalar. Lev Tolstoyning Hindiston xalqlari adabiyotiga ham ta'siri bo'lgan, ko'pgina realist yozuvchilar uning asarlarini tarjima qilganlar hamda asarlaridan ilhomlanganlar. Ayrim hind ijodkorlari Tolstoyni o'z ustoz deb bilgan. Mazkur maqolada rus yozuvchisi Lev Tolstoyning "Anna Karenina" romani hamda tamil yozuvchisi Chinnappa Bharatining "Pavlayi" romanlari asosida insoniy munosabatlar va hayot murakkabliklarini ifodalashdagi qarashlari qiyosiy tahlilga tortilgan. E'tiborli jihati shundaki, ikkala romanda ham bir-biridan tubdan farq qiladigan hayot tarzida yashaydigan, turli mintaqa va turli tuzumda yashaydigan personajlar Anna va Aleksey Karenin, Pavlayi va Periyannanlarning oilaviy hayoti, ularning mushtarak muammolari, taqdiri, xayotga va atrofdagilarga munosabati kabi masalalar har ikki adib tomonidan real voqealar asosida ochib berilganligidir. Maqolada turli millat va davrga oid ikki asardagi personajlar, roman voqealari, personajlarning psixologik holati va hayotga, jamiyatga va oilaga munosabatlari kabi masalalar qiyoslanib, o'xshash va farqli jihatlari ochib berishga harakat qilingan.

Zero, adabiyotda gender yangi tushuncha bo'lsa-da, xotin-qizlarga oid muammo azaldan bo'lib kelganligini ushbu ikki roman misolida ko'rish mumkin. Lev Tolstoy va Chinnappa Bharati ham o'z romanlarida bu masalaga teran fikr, chuqur mushohada bilan yondashganligini ko'rish mumkin.

---

## PAVLAI AND ANNA KARENINA: CONJUNCT FACTS

*Maktuba Murtazakhodjaeva*

*Teacher*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

---

**Key words:** Anna, Pavlai, psychological realism, selfless love, loyalty and love, unconventional love, the fate of women.

**Abstract:** Every nation has its own rare works. They do not lose their value over time. Such pieces of arts do not choose time and space, they are translated from one language to another and they are appreciated by their fans. Lev Tolstoy, the representative of Russian literature, won the hearts of literature lovers with his appreciable works. Artists inspired by his works are able to write new works. Lev Tolstoy also influenced Indian folk literature, and many realist writers translated his works and were inspired by his works. Some Indian artists considered Tolstoy as their mentor. This article provides a comparative analysis of Russian writer Leo Tolstoy's novel "Anna Karenina" and Tamil writer Chinnappa Bharati's novel "Pavlayi", based on their views on the expression of human relationships and the complexities of life. It is noteworthy that in both novels both writers revealed the family life of the heroes Anna and Alexei Karenin, Pavlayi and Periyannan, leading completely different lifestyles, living in different regions and under different regimes, their common problems, their destinies, their attitude to life and the people around them based on real events. The article compares the characters of two works of different nationalities and eras, the events of the novel, the psychological state of the characters and their attitude to life, society and family life, and also makes an attempt to identify similarities and differences.

After all, although gender is a new concept in literature, the example of these two novels shows that the problem of women has existed since time immemorial. It is clear that Lev Tolstoy and Chinnappa Bharati approached this issue in their novels with deep thought and observation.

---

## ПАВЛАИ И АННА КАРЕНИНА: СВЯЗАННЫЕ СУДЬБЫ

*Мактуба Муртазаходжаева*

*преподаватель*

*Джизакский государственный педагогический институт*

*Джизак, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** Анна, Павлаи, психологический реализм, безответная любовь, верность и любовь, нетрадиционная любовь, судьба женщин.

**Аннотация:** У каждого народа есть свои уникальные произведения. Со временем они не теряют своей ценности. Такие произведения не выбирают время и пространство, они переводятся с одного языка на другой и получают признание своих поклонников. Лев Толстой, представитель русской литературы, покорила сердца своих последователей своими произведениями. Вдохновленные его шедеврами, творцы создавали новые произведения. Лев Толстой также оказал влияние на индийскую народную литературу, и многие писатели-реалисты вдохновляясь его творчеством, переводили его произведения. Некоторые индийские писатели считали Льва Толстого своим наставником. В данной статье идет сравнительный анализ романа русского писателя Льва Толстого «Анна Каренина» и романа тамильского писателя Чиннаппы Бхарати «Павлайи», основанные на их взглядах, на выражение человеческих отношений и сложностей жизни. Примечательно, что в обоих романах семейная жизнь героев Анны и Алексея Карениных, Павлаи и Перияннана, ведущих совершенно разный образ жизни, живущих в разных регионах и при разных условиях, их общие проблемы, их судьбы, их отношение к жизни и окружающих людей, - и их проблемы были раскрыты на основе реальных событий.

В статье идет сравнения персонажей двух произведений разных национальностей и эпох, психологических состояний героев и их отношение к жизни, обществу и семейной жизни, а также идет попытка выявить сходства и различия.

Хотя, термин «гендер» – новое понятие в литературе, на примере анализа этих двух романов видно, что проблема женщин существует с незапамятных времен. Очевидно, что Лев Толстой и Чиннаппа Бхарати подходили к этому вопросу в своих романах с глубоким размышлением и наблюдательностью.

---

## KIRISH

Lev Tolstoy (1828-1910) ijodi namunalari bilan XX asrdayoq Hindiston xalqlari yaxshi tanish bo'lgan. Dastlab uning hikoyalari, keyinchalik romanlari turli hind tillariga tarjima qilingan. Lev Tolstoy asarlarining tarjimoni sifatida birinchilardan bo'lib Munshi Premchandning nomini qayd etish joiz. Ushbu maqolada zikr etiladigan "Anna Karenina" romani hind tarjimonlari tomonidan bir necha marta hindiy tiliga tarjima qilingan.<sup>1</sup>

Lev Tolstoy ijodidan ko'pgina hind yozuvchilari ilhomlanib, yangi asarlar yaratishga muvaffaq bo'lganlar. Shu jumladan, tamil adabiyotining serqirra ijodkori Chinnappa Bharati (1935-2022) ham uning asarlaridan ta'sirlangan, ilhomlangan. Chinnappa Bharati bilan ilk uchrashuv, qolaversa, uning Lev Tolstoyga bo'lgan hurmati, uning ijodiga bergan ta'rifi ushbu maqolaga qo'l urishimizga sabab bo'ldi. Uning ijod xonasida ish stoli ustidagi ochiq javonda turgan Lev Tolstoyning byustiga ishora qilib, bu adib mening ilhomim sababchisidir, degani hali hanuz qulog'im ostida jaranglaydi. Siz tufayli o'zbek tiliga tarjima qilingan "Pavlayi" roman ham "Anna Karenina" asaridan ilhomlanish asosida dunyoga kelgan, degan gapi hamon yodimda.

## TADQIQOTNING USULLARI

Psixologik realizm yo'nalishida yozilgan ikki asar – "Anna Karenina" va "Pavlayi" romanlarining o'xshash va farqli tomonlarini tahlil qilish maqolaning maqsad va vazifalarini belgilaydi.

**Usullar.** Mazkur maqolani yozishda nazariy-metodologik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

## NATIJALAR/MUHOKAMA

Lev Tolstoy hayoti va ijodi<sup>2</sup> xususida keng va batafsil to'xtalib o'tishni joiz deb bilmagan holda muqoyasaga olingan ikkinchi adib Chinnappa Bharati ijodi borasida so'z yuritish maqsadga muvofiqdir. Chunki Lev Tolstoy jahon miqyosida o'rganilgan, tanilgan adib, ko'plab ilmiy loyihalarning bosh mavzusi bo'lgan yozuvchi hisoblanadi.

Chinnappa Bharati XX asr tamil romanchiligining yetuk namoyandasi bo'lib, u tamil adabiyotining realizm yo'nalishida ijod qilib keldi. Tamilnadu shtatining Namakkal shahrida adabiyot sohasida katta yutuqlarga erishgan ilmiy tadqiqotchilar, adiblar, ijodkorlar va tarjimonlarga har yili Chinnappa Bharati nomidagi mukofotning taqdim etilishi adib ijodining tamil adabiyotida o'ziga xos ahamiyati va o'rni mavjudligini ko'rsatadi.

Chinnappa Bharati badiiy ijodda o'z uslubiga ega bo'lgan yozuvchi sifatida ajralib turadi. O'ziga xosligi shundan iboratki, adib asarlarining syujeti real voqelikka asoslanadi<sup>3</sup>. Shu o'rinda Lev Tolstoy ham realizm yo'nalishida ijod qilganligi ikki adibning ijodidagi mushtaraklikni ko'rsatadi. Badiiy asar yaratishda voqelikka asoslanish o'quvchining asarga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

"Anna Karenina" Lev Tolstoyning eng mashhur asarlaridan biri bo'lib, 1877-yilda yozilib, 1878-yilda kitob holida nashr etilgan romanidir. Mazkur roman Konstantin Lyovin va Kitty Shcherbatskaya o'rtasidagi baxtli munosabatlar hamda Anna Karenina va ofitser Vronskiy o'rtasidagi sevgi haqida bo'lib, unda nikoh va oila, xiyonat va sadoqat borasidagi falsafiy fikr-

<sup>1</sup>Стрелкова Г.В. Переводы произведений Льва Толстого на язык хинди. Международная Конференция (Семинар (workshop)): XIV Международный семинар переводчиков произведений Л.Н.Толстого и других русских классиков. Даты проведения конференции: 10-13 сентября 2019

<sup>2</sup> <https://kitobxon.com/uz/yozuvchi/lev-nikolaevich-tolstoy>

<sup>3</sup> Жумладан, "Иттифок" романини ёзиш учун К.Чиннаппа Бхарати Колли тепалигида яшовчи кабилалар билан бирга бир чодирда яшаб уларнинг оғир ҳаёти ва уларга нисбатан қилинаётган адолатсиз зуғу мларни ўз романида тилга олади. "Кончилар" романининг дунёга келиши тарихи ноанъанавийдир. Ёзувчи кончилар билан кўмир қонида ишлайди, бир чодир остида яшайди ва ўзининг машҳур романини ёзади.

mulohazalar bilan birga qishloqning shaharga nisbati va qishloqdagi dehqonlar hayoti aks ettirilgan. Roman sakkiz qismdan iborat, o'ndan ortiq qahramonlar ishtirok etgan murakkab asardir. Lev Tolstoy ushbu romanida Annaning boshqa erkakni sevib qolishi ortidan Aleksey Karenin bilan nikohining bekor qilinishini tasvirlab bergan. Anna esa Alekseyning rafiqasi bo'lishiga qaramay, boshqa bir erkak, ya'ni Vronskiyning sevadi.

Lev Tolstoy o'zining "Anna Karenina" romanida Annaning xarakterini to'laqonli tasvirlab bera olgan. U o'zidan yigirma yosh katta Aleksey Kareninga turmushga chiqqan. Aleksey Karenin tabiatan jiddiy va tortinchoq shaxs sifatida tasvirlangan. U yosh xotining g'ayrioddiy go'zalligi va jozibasining qadriga yetmaydi. Oilali, bir farzandning onasi bo'lishiga qaramay, erining befarqligi tufayli yosh va barvasta Vronskiyga Annaning ishq tushadi. Anna akasi va uning rafiqasi o'rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etish uchun Moskvaga kelganida, vokzalda Vronskiy bilan uchrashib qoladi. Tabiat manzaralari, Anna va Vronskiy munosabatlarining rivojlanishi va uning oqibatlari romanning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Annaning turmush o'rtog'i Aleksey ayolini Sankt-Petburgda qoldirib, o'zi Moskva shahriga ko'chib o'tadi. Hayot sinovlari Alekseyning darddan azob chekayotgan Annani kechirishga undaydi. Vijdon amriga bo'ysungan Alekseyning chin dildan aytgan so'zlari tug'ruq vaqtida og'irlashib qolgan Annaning ko'zlarini ochadi. Aleksey kechirgan holatda Vronskiyga qo'l cho'zadi. Vijdoni qiynalgan Vronskiy o'z joniga qasd qilmoqchi bo'ladi, afsuski, uning bu niyati amalga oshmaydi. Munosabatlari biroz o'nglangach, Anna Vronskiy bilan Italiyaga jo'nab ketadi. Bir muddat o'tgach, ular Rossiyaga qaytadilar, biroq jamiyat Annani qabul qilmaydi, Vronskiy bilan qishloqqa ketishga majbur bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan Anna Vronskiy bilan yashash qaroridan afsuslana boshlaydi, chunki ular o'rtasida turli xil mojarolar chiqa boshlaydi. Oqibatda Anna ko'p miqdorda narkotik dori qabul qiladi. Annani bir tomondan kundalik tortishuvlar qiynayotgan bo'lsa, bir tomondan o'g'li Serejaning sog'inchi ayovsiz qiynayotgan edi. Qattiq qayg'uga va tushkunlikka tushib qolgan Anna bemor onasini yo'qlab qishlog'iga ketgan Vronskiyning noto'g'ri tushunib, o'zini poyezd tagiga tashlaydi. Ayolning maftunkor chehrasidan boshqa tanasining butun qismi poyezd g'ildiraklari ostida majaqlanib ketadi. Adib Annaning hayotini ular ikkisi tanishgan vokzalda ramziy ma'noda yakunlaydi. Ayol o'z hayotini qurbon qilib jamiyat qoralab kelgan uning oilasiga qilgan xiyonati badalini to'laydi. Zero, inson zoti o'zgalar xatosini muhokama qilishga haqli emas, degan fikrni ilgari surgan Lev Tolstoy epigraf sifatida keltirgan – «Mne otmnenie, i Az vozdam» (Ularning qasoslari mening bo'yinimda, men jazolarini beraman) <sup>4</sup>.

Vronskiyning Annaga muhabbati chin va samimiydir. U o'z ehtiroslariga qattiq berilgan. Anna xususida so'z borganda, uning jamiyatning tartib-qoidalarini buzishi jamiyatdan ajralib qolishiga sabab bo'lganligini e'tirof etish joizdir. Anna uchun haqiqiy tashvish uning o'z yaqinlari, ya'ni do'stlari uni kamsitib, uni tarjibasiz va bilimsiz bir havaskorga o'xshatib, jamiyatdan ajratib qo'yganlarida boshlanadi.

Annaning Vronskiyga bo'lgan muhabbati bilan bog'liq voqealar asosiy bosh bo'g'inni tashkil qiladi. Levin bilan bog'liq voqealar yondosh bo'g'inda parallel sodir bo'ladi. Ikkala juftlik o'rtasidagi mehr-muhabbatga boy tafsilotlar, qarama-qarshiliklar asarning axloqiy mezonini belgilaydi.

Tolstoy Annani Vronskiy bilan, Kittini Levin bilan birga hayot kechirayotgan qarama-qarshi juftliklar sifatida taqdim etsa-da, ammo ularning hayot hikoyalari bir-biri bilan o'zaro bog'liq. Adib qarama-qarshiliklar orqali jamiyatda nikohsiz hayot qirralarini ham ochib berishga harakat qiladi.

Savol tug'ilishi tabiiy, bu o'rinda Lev Tolstoyning "Anna Karenina" va Chinnappa Bharatining "Pavlayi" romanlari o'rtasida qanday bog'liqlik yoki tafovut bor? Bu o'rinda Chinnappa Bharatining "Pavlayi" romani xususida ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir. Chinnappa Bharatining "Pavlayi" romani 1996-yilda nashr etilgan bo'lib, yozuvchining boshqa

<sup>4</sup> <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/lev-tolstoy/lev-tolstoj-anna-karenina-roman/,3-bet>



asarlardan qiziqarli syujet va yuksak badiiyati bilan ajralib turadi. Romanning yetakchi mavzusi o'zining muhabbati yo'lida noan'anaviy kurash yo'lini tanlagan tamil ayolining hayotini aks ettirishdan iborat. Adib hind jamiyatida bugungi kunda ham uchraydigan ayrim qoloq urf-odatlar va qarashlarni keskin tanqid ostiga olib, ayollar ham o'z ovozigaga ega ekani, qizlarni turmushga berishda ularning istak-xohishlarini ham e'tiborga olish zarurligi g'oyasini ilgari suradi. Romanda jamiyatning qonun-qoidalari, ota-onaning istak-xohishiga qarshi chiqqa olmagan Pavlayi o'z sevgisidan voz kechib, qo'shni qishloqda yashovchi Periyannanning etagidan tutishga majbur bo'lgani aks ettiriladi. Aslida Pavlayi sevgan yigit hech kimi yo'q bir kambag'al bo'lgani uchun qizning ota-onasi farzandini unga berishni istamaydi va yer-mulkka ega bo'lgan Periyannanni kuyovlikka tanlaydilar.

Roman voqealarida o'ndan ortiq personaj ishtirok etadi va roman sakkiz qismdan iborat. Ayrim qahramonlar voqealarda bevosita qatnashib, o'z nomiga ega bo'lsa, boshqalari asar voqealari tizimiga personajlar yoki muallif nutqi orqali kiritilgan, ayrim hollarda muallif ularga nom bermasdan, bu personajlarni Pavlayining oshig'i, o'g'li, ota-onasi, Periyannanning buva-buvisi, amakisining xotini kabi nomlar bilan kiritgan.

Pavlayi qishloqning sodda bir qizi, beg'ubor sevgi sohibasi, itoatkor xotin, mehnatsevar ona, o'z muhabbati yo'lida kurashuvchi jasur ayol sifatida tasvirlanadi. Pavlayi o'n yillik tinch-totuv turmushidan voz kechib, o'zini shol bo'lib, yolg'iz qolgan sobiq oshig'ining xizmatiga bag'ishlashi hind jamiyatida ko'z ko'rib-quloq eshitmagan voqea edi. Oila sha'nini himoya qilish uchun Periyannan o'z ayoli Pavlayining sobiq oshig'i yoniga, ya'ni o'z qishlog'iga ketib qolganini atrofdagilardan yashiradi.

Chinnappa Bharatining "Pavlayi" romani Periyannanning daladagi mashaqqatli mehnati, uni tashlab ketgan rafiqasi Pavlayi haqidagi xotiralar bilan boshlanadi. Bu yerda butun roman davomida xotiralar texnikasi qo'llanilganini ko'rish mumkin.

Hayot ummoniga cho'mib, taqdirga tan bergan Pavlayi eri bilan dalada yelkama-yelka turib mehnat qiladi, uy-ro'zg'or yumushlarini bajaradi, tinimsiz mehnatdan hech nolimay yashaydi. Vaqti kelib Pavlayi o'g'il ko'radi. Biroq asar davomida bu farzand haqida ortiq so'z yuritilmaydi. Periyannan esa Pavlayining sevgan yigiti bo'lganidan boxabar bo'la turib bu haqda hech qachon so'z ochmas edi. Asarning avj nuqtasi Pavlayining sobiq oshig'i haqida umr yo'ldoshi Periyannanga so'zlab berishi va u bilan orani ochiq qilishida namoyon bo'ladi.

Qalbida ilk sevgisi g'alaba qozongan Pavlayi bugungi oilaviy hayotiga o'z qo'li bilan qum sepushga majbur bo'ladi. Pavlayi ketib qolgach, Periyannanning befayz hayotiga Tankamma avvaliga mardikor ayol sifatida kirib keladi. Keyinchalik hamdard, maslakdosh va jamiyat tish-tirnog'i bilan qarshi chiqsa ham benikoh yostiqdosh darajasiga yetib borib, yillar davomida orzuga aylangan homiladorlik baxtiga erishadi, lekin irodali ayol sifatida farzandining baxtsiz kelajagi hamda sha'nini himoya qilish uchun nafaqat o'z hayotiga, balki zurriyoti hayotiga ham zomin bo'ladi. Romandagi yana bir ayol Tankamma bo'lib, u hech kimi yo'q, farzand ko'rmagan bir beva, xat-savodsiz, jamiyatda hech qanday huquqqa ega bo'lmagan quyi tabaqa vakili bo'lishiga qaramasdan, vazmin, hayot qiyinchiliklarini ko'rgan, keng mushohadali ayol. Hind jamiyatida esa bevalarga ancha past nazar bilan qaraladi, odatda, ular hayotning rangin jabhalaridan uzilgan holda yashaydilar. Tankamma ham shular jumlasidandir.

Hayot chigal bir jumboqqa o'xshaydi. Ba'zan uning yechimi topiladi, ba'zan tugunga tugun ulanib, boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yadi. Ikkala adibning romanlarida ham shu vaziyatni kuzatish mumkin. Annaning jamiyatdan panoh topa olmay yurgan vaqtlari, Vronskiy bilan til topisha olmay qiynalganlari hamda Pavlayining ikki o't orasida qolishi, kul bosgan cho'g'da qayta-qayta jizg'inak bo'lishini tasvirlash har ikki ijodkordan katta hayot maktabini, realistik tasvirni talab qiladi. Lev Tolstoy o'z romanida uch oila taqdirini bayon etadi: Oblonskiy, Karenin va Levin. Chinnappa Bharati ham o'z romanida uch juftlikning taqdirini ochib berishga harakat qiladi: Pavlayi-Periyannan, Periyannan-Tankamma va Pavlayi-Murugan. Pavlayi Muruganni qattiq sevadi, lekin uning eri – Periyannan Pavlayini qattiq sevadi. Javobsiz sevgi manzarasini har ikki romanda ko'rish mumkin. Taqdir zarbasi bilan Periyannan o'z

hayotidan Pavlayi uchun ajratgan joyni Tankamma nikohsiz egallaydi. Nikohsiz oilani "Anna Karenina"da ham ko'rish mumkin, bu o'rinda Anna va Vronskiy hamda Pavlayi va Murugan o'rtalaridagi sof muhabbatni payqash o'quvchi uchun muammo emas. Biroq Murugan personaji Tolstoy yaratgan Vronskiy kabi to'laqonli ochib berilmagan, yashirin obrazga o'xshaydi.

Ikkala romanda Periyannan va Aleksey qiyofasidagi haqiqiy mard erkaklarni ko'rish mumkin. Har ikkisi ham rafiqasini kechiradi va har ikkalasi ham hurmatga loyiq inson sifatida tasvirlangan. Afsuski, "Anna Karenina"dagi Aleksey va "Pavlayi"dagi Pavlayining eri Periyannanni bir savol qurshab olgan: balki men uni qanday sevishni bilmasman? Yoki u meni seva olmas? Pavlayining husniga mahliyo bo'lgan Periyannan yoniga xotinini olib biron joyga borishni, oilaviy baxtini atrofdagilarga ko'z-ko'z qilishga intiluvchan shaxsdir. Mehr bilan xotinini bag'riga bosib turib, Periyannan deydi:

*- Ertaga to'yga borishimiz kerak-a? Uydagi yumushlarni tindirib, yuvinib-taran, to'y liboslaringni kiyib, tayyor bo'lib tur. Men ham ishlarimni tugatib, tushda uyga qaytaman.*

*To'y Pavlayining qishlog'ida, uzoqroq qarindoshlarinikida bo'layotgan edi. Bir kishi borsa, kifoya edi. Lekin ularning ikkovini ham taklif qilishgan edi. Pavlayi to'yga Periyannanning yolg'iz o'zi borishini astoydil xohlardi. Buning sababini bir o'zigina bilar edi. Unutilgan muhabbati yana jonlanib qolishi hech gap emasdi.<sup>5</sup>*

Shu o'rinda Periyannan obraziga chuqurroq to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Periyannan irodali, sabrli, mehnatkash, yetim o'sib hayotning og'ir-yengiliga bardosh berishga bolaligidan ko'nikkan yigit. U yoshligidan ona mehrini ko'rmagani bois, turmushining ilk kunlaridanoq Pavlayini qattiq sevib qoladi. Shuning uchunmi, Pavlayining sobiq oshig'i borligini eshitganida ham, xotini uni tashlab ketganida ham bu haqda hech kimga og'iz ochmaydi. Agar hayot majbur qilmaganida, qattiq betob bo'lmaganida, balki Tankamma bilan yashashga ham rozi bo'lmasdi, chunki oilaga, sevgan xotining qaytib kelmasligini bilsa-da, xiyonat qilish Periyannan tabiatiga zid edi. Shu tariqa asarda yozuvchi Periyannan obrazini juda xokisor, taqdir izmida yuruvchi inson sifatida gavdalantiradi.

"Anna Karenina" va "Pavlayi" romanlaridagi ayrim mushtarak va tafovutli jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, Vronskiy va Muruganning o'z sevgilisiga muhabbatini ko'rsatishda o'xshashlik bor, ya'ni ikki oshiq ma'shuqasisiz hayot, kelajak, taskin yo'qligini e'tirof etadilar.

Yana bir o'xshashlik bu har ikki romanda jamiyatning fikri bir. Periyannan va Aleksey haqida so'z borganda jamiyat ularning naqadar olijanobligini, bunday eri bor ayolning baxti chopishini e'tirof etadi.

Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, ikki adib romanning asosiy qahramonlari obrazini yaratishda bir xil insoniy tuyg'ularga boy shaxslarni gavdalantirganlar. Ayol obrazlarini yaratish borasida ayollarning aqlga emas, yurakka bo'ysunuvchi shaxs sifatida shakllantirganlar. Oilaga, qadriyatlarga vafo, sadoqat masalasida erkaklar ayollarga nisbatan kuchliroq ekanligini ko'rish mumkin.

Pavlayi onasining o'z qiziga nikoh kuni aytgan gaplari Anna Karenina va Pavlayi kabi obrazlar va jamiyatda shunday fikrlovchi ayollar uchun ham birdek tegishli deyish mumkin: *"Qizim Pavlayi! Suv qayerda oqsa, o'sha yerga qarab rangini ham o'zgartiradi. Ayol kishining hayoti ham shunday. Ayolning niyati erining niyati bilan bir xil bo'lishi kerak. Suvning o'zi bo'lsa hech nima bo'lmaydi, biroq tuproqqa qo'shilsa, undan har xil o't-o'lan o'sib chiqadi. Shu tariqa erning ra'yiga qaramagan xotin ham baxtli bo'la olmaydi. Eski gaplarni qo'y, sevgini unut. Ayol kishining hayotida unga tegishli hech narsa bo'lmaydi. Ko'nglidagini ayta olmaydi, o'z ko'nglicha yashay olmaydi. Yuragingni o'ldirib, orzularingni o'tga yoqib, barcha dard va hasratlaringni ichingga yutib yashasang, marra seniki, zero ayolning qismati – shu!"<sup>6</sup>*

## XULOSA

<sup>5</sup> Жаҳон адабиёти №1 74-бет

<sup>6</sup> Жаҳон адабиёти, 2015 йил, №1, 61-бет

Ikki milliy adabiyot vakillari Lev Tolstoy va Chinnappa Bharati o'z romanlarini yaratishda bir-biridan tubdan farq qiladigan madaniyat orqali ifodalagan bo'lsalar-da, ulardagi o'xshash tuyg'ular, o'xshash voqealar, tutash taqdirlar orqali har ikki jamiyatda oila maktabining ustuni bir ekanligini isbotlay olganlar.

Romanni o'qish jarayonida o'quvchida "Nima uchun asarga Pavlayi nomi berildi, asarda ko'proq Periyannanning taqdiri yoritilgan-ku?" degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Shu o'rinda ham Lev Tolstoyning "Anna Karenina" siga bo'lgan moyillikni ko'rish mumkin. Har ikki roman bilan to'liq tanishish shuni ko'rsatdiki, mazkur romanlarda bosh qahramon bo'lgan ikki ayolning ichki kechinmalari to'liq ravishda ochib berilgan. Mualliflar ayollarning ham inson ekani, ular ham xuddi erkaklar kabi baxtli yashashga haqli ekani, ayolga ojiza deb qarash noo'rinligi, agar u istasa hayotning har qanday to'sig'ini yengib o'tishi mumkinligi, har bir ayolning jamiyatda o'z o'rni borligini ta'kidlamoqchi bo'ladilar. Lev Tolstoy ham, Chinnappa Bharati ham xulosa qilishni kitobxonga qoldiradi. Odatda, hind yozuvchilarining asarlarida ezgulik yovuzlikdan ustun keladi va ezgulik doim g'alaba qozonadi. Ammo "Pavlayi" romani bundan mustasno. Roman yakunida Tankamma hayotdan ko'z yumadi, Pavlayining taqdiri, kelajagi mavhumligicha qoladi. Bu mavhumlik kitobxonni chuqur mushohadaga undaydi. Ming yillik urf-odatlariga ko'r-ko'rona ergashish, ojizlik, ayolni haq-huquqsiz yashashga, hatto qurbonlikka mahkum etgan jamiyatdagi tengsizlik, adolatsizlik, tabaqalarga ajratish romanda Pavlayi-Periyannan, Periyannan-Tankamma, Pavlayining onasi-Pavlayi, Pavlayi-Murugan munosabatlaridagi ma'naviy kurash misolida ochib berilgan.

Lev Tolstoyning "Anna Karenina" si va Chinnappa Bharatining "Pavlayi" romani madaniy, hududiy va tarixiy tafovutlarga qaramasdan, o'z xalqining adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan bir qator ko'zga ko'rinarli mushtarak xislatlarga ega.

#### **Mushtaraklikni quyidagilarda ko'rish mumkin:**

Asosiy mavzu—oilaviy munosabatlar va jamiyatdagi ayol va erkakning o'rni va huquqi bilan bog'liq qonun-qoidalar. Ikkala romanda qahramonlar o'z davrining ijtimoiy cheklovlar va axloqiy me'yorlardan aziyat chekadilar. Anna Karenina benikoh hayotning jamiyatdagi muhokamalariga sabab bo'lib, o'z hayotini fojeali yakunlagan bo'lsa, Pavlayi va uning atrofidagi ikkinchi darajadagi obrazlar ularni o'rab turgan jamiyatning salbiy odatlari va qadriyatlariga bo'ysinishga majbur bo'ladilar. Jamiyatning chirkin qarashlari roman qahramonlarining muhabbatlari va baxtlariga raxna solganligini ko'rish mumkin. Ikkala adib oila institutini chuqur o'rgangan adiblardir. Lev Tolstoy va Chinnappa Bharati nafaqat romantik munosabatlarni yoritadilar, balki chuqur oilaviy rishtalar, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni ham tasvirlaydilar. Ushbu romanlarda turli xildagi muhabbat va oilaga mansub bir necha juftlikning hayotini, taqdirini va o'zaro munosabatlarini ko'rish mumkin.

Mazkur romanlarda ayol taqdiri, uning oila va jamiyatdagi o'rniga alohida urg'u beriladi. Anna Karenina—jahon adabiyotidagi murakkab va ziddiyatli ayol obrazlaridan biri. Anna Karenina o'z baxti uchun kurashuvchi, tanlash huquqiga ega ayol timsoli sifatida tan olinsa, "Pavlayi" dagi ayol obrazi hind feodal tuzumida teng huquqlikka qarshi ovoz ko'targan ayollar sifatida tasvirlangan.

Ushbu romanlar psixologik realizmning yuksak cho'qqisida yaratilgan. Lev Tolstoy va Chinnappa Bharati o'z qahramonlarining ichki dunyosini, ularni qiynagan muammolarni, ozor bergan dardlarni mohirona tasvirlab bera olganlar. Bunday yondashuv kitobxonga qahramonlarning xatti-harakatini, ruhiy og'riqlarini teran tushunishga, his qilishga yordam beradi.

Lev Tolstoy va Chinnappa Bharati jamiyatning chirkin qoidalari va axloqiy talablarini tanqid ostiga oladilar. Adiblar jamiyatdagi bunday qora nuqtalar insonlarning shaxsiy hayoti va taqdirini buzishgacha olib borishi mumkinligini tarozuning bir pallasiga qahramonlarning shaxsiy istak-xohishlarini esa yana bir pallasiga jamiyatning chirkin illatlarini qo'ygan holda yoritib berishga harakat qilganlar. Romanlarning sakkiz qismdan iboratligi va har ikki romanda ham o'ndan ortiq personajlarning ishtirok etishi ham o'xshash jihatlardan biri, deyish mumkin.



**Tafovutlar:**

“Anna Karenina” (1877y.) Rossiyaning XIX asrdagi holati va harbiylar va zodagonlar hayotidan boxabar qiladi. Lev Tolstoy axloqqa oid munozarali vaziyatlarni, jamiyat qonun-qoidalarini, zodagonlarning o‘ziga xos oilaviy muhitini tasvirlab bergan. Roman syujetining rivojida va qahramonlarning ziddiyatli holatida jamiyatning qarashlari muhim rol o‘ynagan.

Chinnappa Bharati qalamiga mansub “Pavlayi”(1996y.) XX asrda yozilgan bo‘lib, kitobxonni hind jamiyati va qishloq hayotiga yetaklaydi. Ushbu romanda asosiy diqqat-e’tibor oddiy insonlarning g‘am-tashvishlari va quvonchlariga qaratilgan. Yozuvchi ushbu asarida kasta tizimining hind oilalari va jamiyatiga ta’sirini ochib bergan.

G‘oya va syujet masalasida ham ayrim tafovutlarni ko‘rish mumkin. Tolstoy o‘z qahramoni Annaning fojeali o‘limi bilan noodatij sevgi qissasiga yakun yasagan bo‘lsa, Chinnappa Bharati o‘z qahramoni Pavlayining taqdirini kitobxon hukmiga qoldiradi. Roman qahramonlarining taqdiri mavhumlik bilan yakun topishi hind adabiyotiga “yangi uslubda asar yaratish” uslubining kirib kelganligidan dalolat beradi.

Roman tili va uslubi yuzasidan so‘z borganda, Tolstoyning ijodidagi oliy til unsurlari, falsafiy talqinlar hattoki, Bibliyadan keltirilgan iqtibos (roman boshida keltirilgan) o‘quvchini keng va chuqur mushohadaga chorlaydi, bir o‘qishda ayrim fikrlarni tushunish qiyin, tili murakkab roman, lekin asar ichiga kirib borgan sari o‘quvchi roman mag‘zini chaqa boshlaydi. Tolstoyning bunday yondashuvi o‘quvchidan diqqatni jamlashni va romanni chalg‘imasdan o‘qib o‘rganishni talab qiladi.

Chinnappa Bharati oddiy va xalqchil tilda ijod qilishi bilan ajralib turadi. Uning “Pavlayi” romani iboralarga, qochirimlarga, o‘xshatishlarga boyligi bilan ajralib turadi. Adibning asar yaratishga bo‘lgan bunday yondashuvi o‘quvchi uchun yengillik, bir o‘qishda qalbdan joy oladigan asarning yaralishiga zamin yaratgan. Qisqa qilib aytganda, har ikkala romanning o‘z muxlislari bor.

Anna va Pavlayilar yozuvchilar tomonidan yaratilgan to‘qima obraz bo‘lishiga qaramay ularga o‘xshash qahramonlar hozir ham jamiyatda uchrab turadi. “Anna Karenina” va “Pavlayi” inson qalbi, qadri va jamiyat nafasini talqin qila olgan asarlardir. Zamon va makon tafovutiga qaramasdan o‘z o‘quvchilarini topa olgan mazkur romanlar kuchli ijtimoiy va psixologik tadqiqotlarga asos bo‘lib kelmoqda. Har ikkala roman ham millati, dinidan qat’iy nazar insoniy tuyg‘ular va og‘riqlarning mushtarakligini o‘zida yuksak mahorat bilan namoyon eta olgan asarlardir..

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Lev Tolstoy. Tanlangan asarlar. 4-jild. Anna Karenina. Toshkent, 1980
2. Pavlayi. Jahon adabiyoti. Toshkent, 2015, №1-2
3. सन्वेद. चित्रप्पा भारती. वर्ग के जुझारू साहित्यकार. नयी दिल्ली. अप्रैल, 2011
4. Chinnappa Bharathi’s novels. A critical study. Madras, 1996